

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL QILISH

Xayrullayeva Zarifa Zairovna

Qashqadaryo Viloyati Qarshi tumani 2-sonli

kasb-hunar maktabi O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Telefon raqam: +998976786867

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7972739>

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugungi kunda professional ta'lim tizimida ta'lim jarayonini qanday qilib sifatli tashkil etish va uni amalda qo'llash kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, xalqaro standartlar, klassifikator, masofaviy ta'lim, elektron platformalar, ilmiy salohiyat

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida takidlash lozim. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasida bir qancha yangi qarorlar qabul qilingan.

Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021/2022 o'quv yilidan boshlab professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi. Professional ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda dual ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tuzib chiqildi.

Professional ta'lim muassasasi bilan birgalikda o'quvchilarni o'qishga qabul qilish boshlanishidan kamida bir oy oldin dual ta'lim bo'yicha tegishli rasmiylashtirish ishlari olib borishga qaror qilindi.

Dual ta'limda o'qitish muddatlarini hamda tashkilotga yuborilayotgan o'quvchilar tarkibini professional ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda kelishadigan bo'ldi.

Xususan Professional ta'lim muassasasi tashkilotga ta'lim olmoqchi bo'lgan o'quvchilarni tavsiya etishi mumkin. Tashkilot bilan o'quvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi o'quvchi yoki tashkilot tomonidan taqdim etilgan taqdirda, professional ta'lim muassasasi o'quvchini o'quvchilar safiga qabul qiladi.

Jarayon shaffof bo'lishi uchun professional ta'lim muassasalarida dual ta'limning tashkil etilishi yuzasidan monitoring olib boriladi.

Shu barobarda, professional ta'lim muassasalarida innovasion elektron platformalarni yaratish hamda ulardan foydalanish, doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadida har bir muassasa ma'muriy xodimlarini innovasion elektron platformalar yaratish bo'yicha Davlat byudjeti hisobidan maxsus o'qitish hamda domiy ravishda malakasini oshirish tizimini joriy qilinishi pedagog xodimlarning axborot texnologiyalari sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga hamda tizimda yosh avlodni o'qitishda yangicha yondashuvga erishishga zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon globallashtirish sharoitida axborot texnologiyalari vositasida kadrlar tayyorlash muhim o'rin tutadi. Zero, kundalik hayotimizda,

iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda va hayot faoliyatimizning barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishimiz muqarardir.

References:

1. Qo'ysinov O.A. "Kasbiy pedagogika" fanidan elektron darslik. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi guvohnomasi №DGU 03392. Toshkent-2015 Yil.
2. Qo'ysinov O.A. "Barkamol shaxsni shakllantirish, sog'lom turmush madaniyatiga Ega yoshlarni tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish" "Mustaqil O'zbekiston innovasion taraqqiyot yo'lida" Respublika konferensiya materiallari. Toshkent-2017 yil.
3. Kuysinov O. "Improving the methodologies of raising the effectiveness of Continuous education on the basis of ensuring content consistency" «Actual problems Of modern science, education and training» Electronic Journal. July, 2021-7/1. ISSN 2181-9750
4. Ibraymov A. Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etish va o'quv kurslari mazmunini Ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zMU xabarlar. – Toshkent, 2016 yil. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional Ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar To'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni.



INNOVATIVE
ACADEMY